

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

5-2025
IJTIMOIY FANLAR

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

N.X.Djalalova	
Texnologik sivilizatsiya va ijtimoiy-madaniy jarayonlarning falsafiy asoslari.....	104
Sh.T.Abbosova	
Sun'iy intellekt va ijtimoiy barqarorlikning falsafiy tahlili	108
U.K.Mamayusupov	
Jamiyat rivojlanishida strategik rejalashtirishning ahamiyati	110

SIYOSAT

I.M.Arzimatova	
Boshqaruv tizimida xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish muammolari	113
L.S.Yuldasheva	
Diniy an'analar va xalq tabobatining uzviy rivoji: qadimdan islom davrigacha bo'lgan ilmiy-falsafiy tahlil.....	119
B.N.Eshbekov	
Axborotlashgan jamiyat sharoitida siyosiy kommunikasiya transformatsiyasi	123
A.X.Borotov	
Xususiy mulkni himoya qilish: milliy amaliyot va xorijiy tajriba	127
J.M.Azamov	
Yangi tahrirdagi Konstitutsiya va Konstitusiyaviy qonunchilikning rivojlanish marralari.....	132
M.Kenjayeve	
Yangi O'zbekiston sharoitida jamoat birlashmalarining tutgan o'rni	137
A.A.Ahrorqulov	
Notijorat tashkilotlar tizimida kasaba uyushmalarining tutgan o'rni	141

TARIX

O.V.Mahmudov	
Musulmon Sharqi mutafakkirlari asarlarining Yevropaga tarqalish bosqichlari va geografik yo'nalishlari.....	145
T.T.Safarov	
Farg'ona viloyatida rus qishloqlarining paydo bo'lishi tarixidan.....	154
B.X.Abdullayev	
Rahima Aminovanning xotin-qizlar ijtimoiylashuvidagi ilmiy izlanishlari.....	158
N.M.Ikromov, A.A.Fayziyev	
The exchange of tea and horses in trade relations between China and Central Asia	162
Z.Sh.Turg'unboyev	
Badriddin Al-Ayniy va uning Amir Temur haqida qarashlariga umumiy tavsif	166
G.X.Xasanboyeva	
Sovet hokimiyati yillari qishloq xo'jaligida sug'orish tizimining o'rni.....	171
A.Sharafiddinov	
XIX asr oxiri - XX asr boshlarida Farg'ona viloyatida paxtachilik va paxta yakkaxokimligining vujudga kelishi	174

ILMIY AXBOROT

M.Y.Sultonov	
Tarixiy xotira va ma'naviy meros: Sharq mamlakatlari tajribasi.....	179



UO'K: 32.019.5:316.77:303.443.2

**AXBOROTLASHGAN JAMIYAT SHAROITIDA SIYOSIY KOMMUNIKASIYA
TRANSFORMACIYASI****ТРАНСФОРМАЦИЯ ПОЛИТИЧЕСКОЙ КОММУНИКАЦИИ В УСЛОВИЯХ
ИНФОРМАЦИОННОГО ОБЩЕСТВА****TRANSFORMATION OF POLITICAL COMMUNICATION IN THE INFORMATION
SOCIETY ERA****Eshbekov Bahodir Nurullayevich** O'zbekiston jahon tillar universiteti, mustaqil tadqiqotchisi (DSc), falsafa fanlari bo'yicha
doktori (PhD)**Annotatsiya**

Bugungi kunda raqamli texnologiyalar, internet va ijtimoiy tarmoqlar siyosiy maydonning ajralmas qismi sifatida shakllanib, davlat va jamiyat o'rtasidagi o'zaro aloqalarni yangi bosqichga olib chiqmoqda. Mazkur maqolada axborotlashgan jamiyat sharoitida siyosiy kommunikasiya jarayonlarining o'zgarishlari tahlil qilinadi.

Maqolada siyosiy kommunikasiya nazariyalarining transformatsiyasi, ommaviy axborot vositalarining o'rni, siyosiy diskursning virtual makonga ko'chishi hamda axborot xavfsizligi bilan bog'liq muammolar ko'rib chiqiladi. Shuningdek, yangi kommunikativ mexanizmlarning siyosiy jarayonlarga ta'siri hamda fuqarolik jamiyatida axborot erkinligining ahamiyati ilmiy tahlil etiladi.

Аннотация

В современном мире цифровые технологии, Интернет и социальные сети стали неотъемлемой частью политического ландшафта, выводя взаимодействие государства и общества на качественно новый уровень. В данной статье анализируются трансформации процессов политической коммуникации в контексте информационного общества.

В статье рассматриваются эволюция теорий политической коммуникации, роль средств массовой информации, смещение политического дискурса в виртуальное пространство и вопросы, связанные с информационной безопасностью. Кроме того, проводится научный анализ влияния новых коммуникативных механизмов на политические процессы и значения свободы информации в гражданском обществе.

Abstract

In today's world, digital technologies, the Internet, and social networks have become an integral part of the political landscape, elevating the interaction between the state and society to a new level. This article analyzes the transformations in political communication processes within the context of an information society.

The article examines the evolution of political communication theories, the role of mass media, the shift of political discourse to virtual space, and issues related to information security. Furthermore, the impact of new communicative mechanisms on political processes and the significance of information freedom in civil society are scientifically analyzed.

Kalit so'zlar: Axborotlashgan jamiyat, siyosiy kommunikasiya, raqamli transformatsiya, ijtimoiy tarmoqlar, ommaviy axborot vositalari, siyosiy diskurs, axborot xavfsizligi, fuqarolik jamiyati.

Ключевые слова: Информатизированное общество, политическая коммуникация, цифровая трансформация, социальные сети, средства массовой информации, политический дискурс, информационная безопасность, гражданское общество.

Key words: Information society, political communication, digital transformation, social networks, mass media, political discourse, information security, civil society.

KIRISH

O'zbekiston Respublikasi ham dunyo tamaddunining uzviy qismi sifatida boshqa sohalar kabi, kommunikasiya tizimi, uning favqulodda turi bo'lgan siyosiy kommunikasiya tizimlari shakllanishi va takomillashuvi darajasi juda yuqori deb baholashga asoslar bor. Xususan, davlat va jamiyat boshqaruvining siyosiy tarmoqlarida aynan siyosiy kommunikasiyaning roli beqiyosligini aytish joiz. Yana shuni alohida aytib o'tish o'rinliki, mamlakatimizda bu muhim tarmoqlarga keng ijtimoiy ehtiyoj, zaruriyat, shu asosda sohani rivojlantirishning huquqiy siyosiy asoslari ishlab chiqildi.

Shu ma'noda, kommunikativ tizimning huquqiy asosi bo'lgan - O'zbekiston Respublikasining "Elektron hukumat to'g'risida", "Elektron hujjat aylanish", "Elektron raqamli imzo to'g'risida" kabi

qonunlarni sanab o'tish lozim. Qonunlari ijtimoiy siyosiy kommunikasiyaga yana bir yorqin misol sifatida, shuningdek, yaqinda yangi tahrirda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunida masofaviy ta'lim tizimiga o'tilishi belgilab qo'yilganini aytish mumkin.

"Ommaviy axborot vositalari to'g'risida" hamda "Axborot erkinligi prinsiplari va kafolatlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonunlariga muvofiq, ommaviy axborot vositalari tomonidan axborotlarni shakllantirish va tarqatish sohasidagi faoliyatni takomillashtirish va uning samarali monitoringini amalga oshirish, shuningdek shaxs, jamiyat va davlatning axborot xavfsizligini ta'minlash maqsadida aynan siyosiy kommunikasiyaning jadal rivojlanayotganini ko'rsatadi. Prezidentimiz ta'biri bilan aytganda "Mamlatakimizdagi barcha siyosiy-ijtimoiy institutlar kabi **O'zbekiston jurnalistikasi** ham hozirgi raqamli texnologiyalar davrida yangi shakllanish jarayonini boshidan kechirmoqda" [1;120].

MAVZUGA OID ADABIYOTLARNING TAHLILI

"Siyosiy kommunikasiya" atamasining o'zi turli ilmiy manbalarda juda ko'p talqin qilinmoqda. Ular orasida nisbatan to'liq va ko'p ishlatilgani R.J.Shvartsenberg talqinidir: "Siyosiy kommunikasiya – siyosiy axborotni uzatish jarayoni bo'lib, u orqali siyosiy tizimning bir qismidan ikkinchisiga va siyosiy hamda ijtimoiy tizim o'rtasidagi ma'lumotlar tarqatiladi. Shaxslar va barcha darajadagi guruhlar o'rtasida doimiy ravishda ma'lumot almashish jarayoni kichadi"[2;174]. Rossiyalik olim V.V.Latinovning ta'rifiga ko'ra "siyosiy kommunikasiya – siyosiy hayot subyektlari, shu bilan bir qatorda, davlat va fuqarolar o'rtasida kechadigan rasmiy va norasmiy darajadagi ma'lumotlar almashinuvidir" [3;172-173]. A.I.Solov'yev bu atamani "o'zaro ma'lumotlarning yo'naltirilgan uzatilishi asosida o'rnatilgan aloqa shakli" [4;7] deb izohlaydi.

«Siyosiy» va «siyosiy ahamiyatga ega bo'lgan ma'lumotlar» ta'riflariga aniqlik kiritib, M.N.Grachev siyosiy kommunikasiyani "hokimiyat uchun kurash yoki uni amalga oshirish jarayonida axborot almashish orqali siyosat subyektlarining o'zaro ta'sirining semantik tomoni sifatida" tavsiflaydi. "Bu siyosiy ahamiyatga ega bo'lgan ma'lumotlarni maqsadli ravishda uzatish va tanlab olish bilan bog'liq bo'lib, ularsiz siyosiy jarayonning harakati imkonsizdir" [5;84] deb, yozadi.

I.A.Bronnikov, o'z navbatida, kommunikasiya "siyosatga to'g'ridan-to'g'ri yoki bilvosita ta'sir ko'rsatsa, hokimiyat-boshqaruv munosabatlari sohasiga tegishli bo'lsa yoki hokimiyat masalalariga qaysidir tomondan aloqador bo'lsagina – siyosiy xarakterga ega bo'ladi", deb ta'kidlaydi. "Binobarin, siyosiy kommunikasiya axborotni maqsadli ravishda uzatish va tanlab qabul qilish bilan bog'liq bo'lib, ularsiz siyosiy jarayonning harakati imkonsizdir" [6;68]. Bu dalil siyosiy kommunikasiyani uning boshqa turlaridan ajratib turadi, chunki, "siyosiy kommunikasiya nafaqat axborotni etkazadi, balki foydalanuvchiga hissiy ta'sir ko'rsatadi, dunyodagi siyosiy manzaralar haqida inson ongida mavjud bo'lgan tasavvurlarini o'zgartiradi" [7;18].

Siyosiy kommunikasiya, siyosiy kommunikasiyalarning fuqarolik jamiyatini shakllantirish va rivojlantirish misolidagi roli mavzusi mamlakatimiz olimlari tomonidan ham alohida ilmiy tadqiqot yoki monografiya tarzida tadqiq qilinib kelinmoqda. Bunday tadqiqot mavzulari borasida X.T.Odilqoriyev, D.Razzoqov, N.Jurayev, M.Qirg'izboyev, Sh.Qudratxo'ja, F.Xotamov kabi olimlarning tadqiqot ishini aytish lozim. Xususan, taniqli jurnalist va siyosatshunos Sh.Qudratxo'janing tadqiqotlarida O'zbekistonda media va OAV tizimi - fuqarolik jamiyatining kommunikasiyaviy instituta sifatida kabi jihatlar tahliliy tadqiq etilgan va tegishli ilmiy xulosalar berilgan bo'lib, bu o'rinda tadqiqotchi, OAVning siyosiy kommunikasiya sifatidagi faoliyati jarayonlari bevosita jamiyat a'zolarida fuqarolik jamiyatida fuqarolik jamiyati institutlari(FJI)ning faol turi bo'lgan OAVning siyosiy madaniyat, siyosiy ong fazilatlarini yuksalishidagi o'rniga ham to'xtalib o'tilgan [8;232].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Siyosiy kommunikatsiya zamonaviy jamiyatlarning funktsiya qilishini ta'minlovchi asosiy mexanizmlardan biridir. Unga ta'sir qiluvchi siyosiy, madaniy, texnologik omillar bu sohani jiddiy tahlil qilishni talab qiladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Sanoat, texnologik va kommunikasion inqiloblar sharoitida jamiyatdagi tarkibiy o'zgarishlar muammosiga birinchi bo'lib Amerikalik sosiologlar va psixologlar e'tibor qaratgan edi. Kommunikasiyaga oid birinchi ta'riflaridan biri mashhur Amerikalik sosiolog Charlz Kuliga tegishli, degan qarash bor. Ijtimoiy organizmni ijtimoiy o'zaro bog'liqlik iplari bilan o'ralgan shakllanish sifatida o'rganib, tadqiqotchi quyidagi ta'rifni shakllantirdi: "Kommunikasiya – bu insonlarga xos munosabatlarning mavjudligi va rivojlanishi mumkin bo'lgan mexanizm sifatida tushuniladi. U yuz ifodalari, muloqot, imo-ishoralar, ovoz ohanglari, so'zlar, yozuv, matbaa, temir yo'llar, telegraf,

SIYOSAT

telefon va makon hamda vaqtni zabt etishdagi so'nggi yutuqlarni o'z ichiga oladi. Kommunikasiya vositalari va tashqi dunyoning qolgan qismi o'rtasida aniq chegara yo'q. Biroq, tashqi dunyo bilan munosabatlar tug'ilishi bilan birga, faqat fikrlarni uzatishga mo'ljallangan standart belgilar tizimi paydo bo'ladi, undan kommunikasiyaning an'anaviy rivojlanishi boshlanadi" [9;379].

1950–1960-yillarda Amerikalik tadqiqotchilar kommunikasiyani modellashtirishga katta e'tibor berishdi, bu matematika va kibernetikaning gumanitar fanlar bo'yicha ta'siri ortib borayotgani bilan bog'liq edi, natijada tadqiqot amaliyotida eng operativ va keng qo'llaniladigan beshta komponentli chiziqli model ishlab chiqildi. Rossiyalik olim M.N.Grachevning ta'kidlashicha, "klassik an'analardagi tahlilning asosiy obyekti bu – muloqotning o'zi emas, uning ijtimoiy- iqtisodiy va siyosiy konteksti, aniq ijtimoiy guruhlarining manfaatlarini ifodalovchi xabarlarini yaratish, tarqatish va ulardan foydalanishning o'ziga xos tarixiy shartlari bilan bog'liq" [10;238].

Siyosiy kommunikasiya – bu umumiy ta'rifdan kelib chiqib aytganda, ma'lumotga ko'ra, "siyosiy ma'lumotni bir shaxsdan (guruhdan) boshqa shaxsga (guruhga) o'tkazish jarayonidir" [11;188]. Shu bilan birga, siyosiy kommunikasiya siyosatning ajralmas qismi hisoblanadi, chunki, L.Pay ta'kidlaganidek, "har qanday jamiyatda siyosiy hayotning mavjudm siyosiy kommunikasiyalarisiz yashash mumkin emas" [12;123]. Ya'ni, siyosiy sohadagi kommunikatsiyaning ahamiyatini ortiqcha baholash deyarli mumkin emas, chunki aynan shu mexanizm orqali zamonaviy jamiyatlar bir butun tizim sifatida shakllanadi. Virtual maydonda kechayotgan siyosiy muloqot va axborot almashinuvi ko'pincha haqiqiy siyosiy jarayonlarga ta'sir qiladi va o'ziga xos institutsional ahamiyat kasb etadi. Zamonaviy tadqiqotchilar bugungi kunda siyosiy kommunikasiya faqat ko'p bosqichli siyosiy axborot aylanish tizimi emas, balki u "siyosiy jarayonning semantik kontekstini qamrab oladi" [13;15], deya haqli ravishda ta'kidlaydilar.

Shuningdek, kommunikativ (ma'no-mazmunini, siyosiy voqyea-hodisalarga munosabatni uzatish) va kommunikasion aktlar (aloqa texnik vositalari yordamida ma'lumot uzatish) siyosiy kommunikasiyaning ajralmas jihatlari hisoblanadi. Siyosiy targ'ibot jarayonda ommaviy axborot vositalari alohida ahamiyatga ega, chunki, zamonaviy dunyoda siyosiy kommunikasiya asosan ommaviy muloqot tarzida amalga oshiriladi. G.Lassuellning klassik ta'rifiga ko'ra, ommaviy kommunikasiya – bu "texnik vositalar orqali uzatiladigan xabarlar yordamida kommunikatorning auditoriyaga maqsadli ta'siri" [14;44] hisoblanadi.

Ommaviy axborot vositalari auditoriyasi omma holatida bo'lgani uchun, ya'ni ular o'zaro ajratilgan, alohidalangan shaxslar bo'lgani uchun o'zaro muloqot qilish imkoniyatidan mahrum bo'lishadi, bunday sharoitda tomoshabinlarga ma'lum g'oyalarni singdirish juda oson. Ilmiy adabiyotlarda bu nuqtai nazar "sehrli o'q" nazariyasi [15;23] deb ataladi.

Axborot-kommunikasiya texnologiyalarining rivojlanishi sharoitida siyosiy kommunikasiyalarni o'rganishga oid zamonaviy tadqiqotlar va yondashuvlarning o'rnini tushunish uchun, siyosiy kommunikasiyaga oid nazariy tushunchalarning shakllanish tarixidagi asosiy bosqichlarni qisqacha tavsiflab beramiz. Buning uchun zamonaviy siyosiy kommunikasiyalarni o'rganishga asos bo'lgan omillarni konseptual jihatdan ajratib ko'rsatamiz.

XX asrning ikkinchi yarmida texnik qurilmalarda axborot almashinuvini tartibga soluvchi tamoyillarga bo'ysunib, kommunikasiyani ma'lum bir ijtimoiy muhitda sodir bo'layotgan jarayon sifatida tushunish an'anasi paydo bo'ldi. «Shaffof jamoatchilik» (The phantom public, 1925) asarlarida Lippman xalqning davlat ishlarini boshqarish qobiliyatini inkor etib, **«hamma narsani biluvchi va hamma narsaga qodir fuqaro haqidagi afsonani»** tanqid ostiga oladi. Olim **«haqiqiy siyosiy qarorlar ma'lum doiradagi odamlar tomonidan qabul qilinishini»** ta'kidlaydi. Lippman demokratiya cheklovlarining manbasini oddiy odamning murakkab ijtimoiy voqyelikni tushuna olmasligida ko'radi. Buning uchun odamlarning na vaqti bor, na bilimi, gazeta va radio orqali olgan ma'lumotlari esa to'liq emas yoki o'zgartirilganligini aytadi. Odamlarning kamdan-kam hollarda o'z manfaatlarini tushunishi va ularni oqilona talab qilishni bilmaligini ta'kidlaydi. Lippman «stereotip» konsepsiyasini ilgari suradi – ya'ni, odam, obyekt yoki muammoning soddalashtirilgan yoki buzilgan ko'rinishi. Lippmanning so'zlariga ko'ra, odamlarda stereotiplar hukmronlik qiladi va hyech qanday saylov tizimi va mulk taqsimotidagi o'zgarishlar bu muammoning ildizlarini yo'q qila olmasligini aytib o'tadi olim [16].

Nazarimizda Lippmanning fikrlariga bir qadar qo'shilish o'rinli deb hisoblaymiz. Darhaqiqat, olim majozlashtirib, "hamma narsani biluvchi va hamma narsaga qodir fuqaro haqidagi afsona" deyishi jamiyatda hamma narsaga qobil bo'lgan universal insonlar kamdan-kam bo'ladi. Jumladan

siyosiy tizimlarda faoliyat yuritish, siyosiy boshqaruv san'ati, mahorati alohida fazilatlardan bo'lib, bu fazilatlar garchi xarizmatik ta'riflashdan yiroq bo'lsakda, bunday uquv hammada ham bo'lavermasligini tan olishimiz kerak. Ana shunday fazilatli kishilar faoliyatlarida, saylovlarda siyosiy sohadagi qobillar ichidan qobilini saylash orqali amalga oshiriladi. Bunday saralash orqali, siyosiy leksikonda aytganimizda siyosiy elita, ya'ni saralanganlar, tanlanganlar shakllanadi. Vaholanki, hozirgi zamon saylovlari ham faol kommunikasiya, xususan, siyosiy kommunikasiya vositasida amalga oshirilmoqda. Masalan, bu yilgi – 2024 yil 27 oktyabrda bo'lib o'tgan saylovlar jarayonida siyosiy kommunikasiyada, ya'ni saylov jarayonida **SJBAT (Saylov jarayonini boshqarish bo'yicha axborot tizimi)** va **SYaER (saylovchilarning yagona elektron ro'yxati)** tizimlaridan foydalanilganligini aytib o'tish lozim [17].

XULOSA VA TAKLIFLAR

Yangi O'zbekistonda "Xalq davlat organlariga emas, davlat organlari xalqqa xizmat qilishi kerak" shiori – siyosiy kommunikatsiyaning davlat siyosati darajasiga chiqqaniga dalil.

Prezidentning "Xalq bilan muloqot" markazlari, onlayn qabullar, ijtimoiy tarmoqlardagi faol davlat organlari – xalq bilan interaktiv aloqa platformalaridir.

Xulosa qilib aytganda, davlat hokimiyatining muvaffaqiyatli amal qilishi nafaqat huquqiy bazaviy strukturalarga, balki jamoatchilik bilan doimiy muloqotga ham bog'liq. Shu nuqtayi nazardan, siyosiy kommunikatsiya – legitimlik va ijtimoiy ishonchni shakllantiruvchi strategik vositadir.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. Toshkent, O'zbekiston nashriyoti, 2021. –B.120.
2. Шварценберг Р.-Ж. Политическая социология: В 3 ч. Ч.1. - М.: 1992. – Б 174.
3. Латынов В.В. Политическая коммуникация // Политическая энциклопедия: В 2 т. Т.2. - М.: 1999. - Б. 172-173.
4. Соловьев А.И. Политическая коммуникация: к проблеме теоретической дентификации // Полис, 2002. №3. – Б.7.
5. Грачев М.Н. Политическая коммуникация: понятие, сущность. - М.: РАПН, 2012. – С.84.
6. Бронников И.А. Политическая коммуникация и современность // NB: Вопросы права и политики. – 2013. – № 4. – С.68.
7. Современная политическая коммуникация: учеб. пособие / Ответ. ред. А.П. Чудинов / Урал. пед. ун-т. – Екатеринбург, 2009. – Б.18.
8. Қудратхужаев.Ш.Т. Фуқаролик жамиятини шакллантиришда ахборот коммуникацияларнинг ўрни (хорижий ва миллий тажриблар қиёсий таҳлил). Сиёсий фанлар доктори (DSc) илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. - Тошкент 2024. 232 б.
9. Кули Ч. Х. Общественная организация. Изучение углубленного разума // Тексты по истории социологии XIX–XX веков: Хрестоматия /Сост.: В. И. Добренков, Л. П. Беленкова. - М.: 1994. -С.379.
10. Грачев М.Н. Политическая коммуникация: теоретические концепции, модели, векторы развития. - М.: Прометей, 2004. – С.238.
11. Janda K., Berry J., Goldman J. The Challenge of Democracy: Government in America. - Boston: Houghton Mifflin Company, 1989. –pp.188.
12. Грачев М. Н. Политика. Политическая система. Политическая коммуникация. - М.: НОУ МЭЛИ, 1999. – Б.123.
13. Иванов Д. Д. Политическая коммуникация в современной России: особенности функционирования и тенденции развития. Автореф. ... к.полит.н. М., 2014. – С.15.
14. Терин В. П. Массовая коммуникация: социо-культурные аспекты политического воздействия: исследование опыта Запада. - М.: Издательство Института социологии, 1999. –С.44.
15. Lowery S., DeFleur M. L. Milestones in Mass Communication Research: Media Effects. - N.Y.: Longman, 1983. – pp.23.
16. The phantom public // <https://archive.org/details/phantompublic0000walt/page/n3/mode/2up>
17. Сайловчилар рўйхати билан ишлаш. <https://saylov.uz/storage/training-center-lectures/June2024/u1ez1pOUy4hzL45m5r8c.pdf>